



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 330 sahifa,  
22-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Matematika fanini o'qitishda kommunikativ va ijtimoiy-psixologik yondashuvlar .....	10
<i>Esonturdiyev Mamatqobil Nurmamatovich</i>	
Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	13
<i>Bahromova Muhayyo Imomqul qizi</i>	
Geografiya ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari .....	18
<i>Tuyg'unov Murodjon Salimqul o'g'li</i>	
Biologiyani o'qitishda belgili-ramziy ko'rgazmalilik vositalaridan foydalanishning o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishdagi roli .....	22
<i>Azimov I. T., Daminova F. A.</i>	
PISA 2025 doirasida raqamli ta'lim kompetensiyalarini baholashning innovatsion mexanizmlari .....	25
<i>Doniyorov Muxiddin Normamatovich, Ishanov Almat Adilxanovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tabiiy savodxonligini oshirishda zamonaviy pedagogik vositalarni qo'llash .....	28
<i>Abdunazarov Bobir Normurodovich</i>	
Raqamli ta'lim resurslari asosida kredit-modul tizimida talabalarning o'quv faoliyatini takomillashtirish .....	32
<i>Jumayeva Ra'no To'ychi qizi</i>	
Oila va maktab integratsiyasining shaxs kamolotiga ta'siri .....	36
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna, Raxmatova Zulxumor Alimovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati .....	40
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda tabiiy fanning o'rni .....	43
<i>G'afforova Zarnigor Abdumo'min qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'limda o'qituvchi va ota-onalar ijtimoiy hamkorligini rivojlantirish .....	47
<i>Xalikova Zaxro Mirshadmanovna, Xolbo'tayev Muzaffar Odilovich, Bozorova Xadicha Javlon qizi</i>	
Nutqida kechikish kuzatiladigan bolalarda nutqni qo'l va barmoq motorikasini rivojlantiruvchi o'yinlar orqali shakllantirish .....	51
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Fotima Adizovna</i>	
Taym menejment asosida bo'lajak o'qituvchilarda liderlik fazilatlarini rivojlantirish .....	55
<i>Soliyeva Ruxsora Sharobiddin qizi</i>	
Sun'iy intellekt va NLP texnologiyalari asosida elektron ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish .....	58
<i>Otakishiyeva Gulshano Abdulaziz qizi</i>	
Pedagogik kvalimetriya asosida bo'lajak o'qituvchilarning diagnostik madaniyatini shakllantirishning nazariy asoslari .....	61
<i>G'aniyeva Muattarxon Nodirbek qizi</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты .....	64
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Yosh erkin kurashchilarda chidamlilikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	69
<i>Ergashov Qaxramonjon Asqarovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mantiqiy masalalar yechishga o'rgatish usullari .....	76
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Haykaltaroshlik fanining metodik qo'llanilishi .....	80
<i>Qodirov Bobirjon Botirjonovich</i>	
Ijtimoiy xavf ostidagi bolalarni qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi va psixologik-pedagogik asoslari .....	85
<i>Manzura Qosmuratova</i>	



Jahonda art-biznes klasterlarining ahamiyati va rivojlanish tuzilmasi.....	89
<b>A. S. Umarov</b>	
Автоматизация решения сложных математических задач графическим методом для углублённого изучения математики в школе .....	92
<b>Эргашев Серожиддин Султонмуродович, Маматов Ислombек Ильесович</b>	
Pedagogika darslarida raqamli va onlayn didaktik o'yinlardan foydalanish.....	97
<b>Qodirova Feruzaxon Abdiyaminovna</b>	
Sun'iy intellekt va tanqidiy fikrlashning kognitiv-konseptual komponenti va uni rivojlantirish metodikasi .....	102
<b>Sobirova Munavvarxon Qaxramonjon qizi</b>	
Media savodxonlik va axborot madaniyati fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari .....	106
<b>Ermatov Sherzodbek Latipjonovich, Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich</b>	
Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv .....	111
<b>To'ychiyeva Mahfuza Umarkulovna, Islomova Shalola Ismoil qizi</b>	
Comparative Study of Passive Constructions in English and Their Translation Into Uzbek.....	117
<b>Elmirzayeva Maftuna Dusmurod qizi, Mustafoyeva Nigina Shuhrat qizi</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning dolzarb muammolari .....	122
<b>Botirova Odinaxon Abdumutalib qizi</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik modeli va metodik asoslari .....	126
<b>Haytbayeva S. R.</b>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari.....	131
<b>Kadirova Nigora Saxibjanovna</b>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini dual ta'lim asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari.....	134
<b>Samiyeva Zuleyxa Uktamovna</b>	
Insonlar orasidagi munosabatlarda noverbal muloqotning komponentlarining ko'rinishlari .....	139
<b>Soliyev Farxodjon Sodikovich, Karimov Jahongirjon Murodjon o'g'li</b>	
Virtual texnologiyalar vositasida texnika fanlarini o'qitish mazmunini innovatsion rivojlantirish .....	145
<b>Yuldasheva Dilorom Husniddin qizi</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida suzish mashg'ulotlarini tashkil etish texnologiyasi.....	150
<b>Toshpulatova Aziza Toyirovna</b>	
Harbiy xizmatchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari .....	155
<b>Tursunov Shaxzod Ramazonovich, Mansurov Sardorbek Sirojiddin o'g'li</b>	
O'qituvchilar ruhiy salomatligini saqlashning amaliy strategiyalari .....	159
<b>Begmatov Raximkul Olimovich</b>	
Ona tili darslarida analitik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlari .....	164
<b>Narziyeva Mastura Sunnatovna</b>	
Maktabgacha ta'limda Project-Based learning texnologiyasi asosida tarbiyalanuvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	168
<b>Kubayeva Mavluda, Po'latova Gullola Ravshan qizi</b>	
Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	173
<b>Qo'chqorov Nodir Bozorovich</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini baholash jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar va vositalar .....	178
<b>A'zamqulova Zilola Sunnat qizi</b>	
Raqamli ta'lim muhitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning didaktik asoslari.....	183
<b>Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi</b>	
Kimyo fanining tarixiy rivojlanishida metodologik yondashuvlar .....	187
<b>Begamov Shaxzod To'liqin o'g'li</b>	
Sport bilan shug'ullanishda qo'l va oyoq motorikalarini rivojlantirish mezonlari .....	190
<b>Imomov Asliddin Abdurazoqovich, Sattarov Qarshiboy Narqulovich</b>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'zbek va ingliz tillarida zamon kategoriyasining qiyosiy tahlili.....	194
<i>Xudoyberdiyeva Dilfuza Alisher qizi</i>	
Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyati.....	198
<i>Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich</i>	
Dizartriyali bolalarda motorikani rivojlantirish – nutqni rivojlantirishning asosiy omili .....	202
<i>Mamatova Muzayyana Batirovna</i>	
Expression of Lexical Economy in English and Uzbek Through Stylistic Means .....	205
<i>Omonov Baxtiyor Uktamovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatni shakllantirish.....	208
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Xamzayeva Sunbula Jasurovna</i>	
Xushmuomalalik strategiyalarining ijtimoiy vazifalari.....	212
<i>Alieva Navruza Xabibullayevna, Azizova Sanobarxon Valijon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida shaxslilik sifatlarining kasbiy rivojlanishdagi psixologik ahamiyati .....	216
<i>Dusmetova Maksuda Matnazarovna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarning ilustrativ yondashuv asosida kreativ va variativ faoliyat olib borish usullari va yo'llari.....	221
<i>Egamberdiyeva Madina Sharif qizi</i>	
Pragmatic Functions in Neurolinguistic Communication .....	224
<i>Fayziyeva Parvina</i>	
Sahro gavhari: ruslar istilosigacha bo'lgan davrda Xiva me'morchiligi tarixi .....	227
<i>Islomjon Xoljigitovich Mirzakulov</i>	
Moslashuvning psixologik mexanizmlari: ta'lim muhiti sharoitida shaxsning adaptatsiyasi.....	235
<i>Jaynarova Sayyora Isoqul qizi, Nuraliyeva Nasiba</i>	
Onalik psixologiyasi va o'rganishning nazariy jihatlari.....	238
<i>Kasimova Xulkar Atabayevna</i>	
Spheres of Language Use.....	243
<i>Kumakbayeva Gulbanu Kuntuarovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda nostandart topshiriqlar metodikasi.....	246
<i>Muxammadiyeva Dinora Tursunpulatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari va didaktik tamoyillari.....	251
<i>N. Jurayev</i>	
Dunyo bolalari huquqlarini himoya qilish: global muammolar, tizimli kamchiliklar va tanqidiy tahlil .....	255
<i>Nargiza Ergasheva</i>	
Talabalarining dasturlashga oid agoritmik fikrlashini rivojlantirish orqali innovatsion faoliyatga tayyorlash usuli .....	259
<i>Orziqulova Barchinoy Ixtiyor qizi</i>	
Talabalarda o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining tuzilmasi va psixologik komponentlari (motivatsion, kognitiv, irodaviy, emotsional-regulyativ komponentlar) .....	264
<i>Otabekova Nargiza Avazbek qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillaridagi metaforalarda til va madaniyat uyg'unligi.....	269
<i>Rasulova Munajat Akmaljonovna</i>	
Limitlar nazariyasini kompyuter imitatsion modellar vositasida o'qitish metodikasi.....	273
<i>Safarov Abbas Abdurasul o'g'li</i>	
Ijtimoiy hamkorlik – barkamol avlodni tarbiyalash poydevori.....	278
<i>Sharipova Gulruxsor Nurkabilovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetensiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari va uning ijtimoiy ahamiyati.....	282
<i>Sultanova Sahobar Ravshanbekovna</i>	
Badiiy gimnastika mashg'ulotlarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish .....	285
<i>Tuxtayeva Azizabonu Abdurasulovna</i>	



Matematika fanini o'zlashtirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining semiotik yondashuvini shakllantirish ...	289
<i>Xayrullayev Ismatulla Nurullayevich</i>	
Pedagogik qadriyatlar asosida o'quvchilarni tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish .....	293
<i>Xoliqova Inobatxon Bo'ri qizi</i>	
Umumta'lim maktabida elektron axborot-ta'lim resurslari.....	296
<i>Xolmurodov Shuxrat Okboevich, Norqobilov Hakimbek Nuriddin o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolaning kreativligini shakllantirishda innovatsion muhit .....	300
<i>Xonnazarova Gulasal Yusuf qizi</i>	
Ta'lim tizimida sinf rahbari faoliyatining joriy etilishining tarixiy asoslari va zamonaviy ko'rinishlari .....	303
<i>Xusenova Sadoqat Botirovna</i>	
Искусственный интеллект в методике преподавания русского языка: адаптивная обратная связь и развитие коммуникативной компетенции .....	308
<i>Джалилова Феруза Намазовна</i>	
Образовательные технологии с учётом восприятия цвета: психологические и методические аспекты.....	312
<i>Имамова Хурият Эргаш кизи</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе .....	317
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрович</i>	
Психологические факторы успешности профессионального обучения студентов .....	319
<i>Рахимходжаева В. С.</i>	
Специфика восприятия окружающего мира в лирике Афанасия Фета .....	325
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	

# HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANI O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGI VA REJALASHTIRISH FAOLIYATI

Maxmudov Baxtiyor Xayrullayevich

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ta'lim tizimida "Hayot faoliyati xavfsizligi" fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati hamda o'quv jarayonini samarali rejalashtirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy bosqichlari, rejalashtirish hujjatlari, metodik faoliyat, sinfdan tashqari tadbirlar va o'quv-moddiy bazani takomillashtirishning ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarda xavfsiz hayot kechirish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** hayot faoliyati xavfsizligi, pedagogik texnika, kasbiy kompetentlik, rejalashtirish, o'quv jarayoni, metodik faoliyat, interfaol metodlar, xavfsizlik madaniyati, pedagogik mahorat.

**Abstract:** The issues of professional competence of the teacher of the "Life Safety Fundamentals" subject, pedagogical skills, and effective planning of the educational process are analyzed. The main stages of organizing the educational process, planning documents, methodological activities, extracurricular activities, and the importance of improving the educational and material base are highlighted. The pedagogical significance of using modern educational technologies for developing students' safe life skills is substantiated.

**Key words:** life safety fundamentals, pedagogical techniques, professional competence, planning, educational process, methodological activity, interactive methods, safety culture, pedagogical skills.

**Аннотация:** Рассмотрены вопросы профессиональной компетентности преподавателя дисциплины "Основы безопасности жизнедеятельности", педагогического мастерства и эффективного планирования образовательного процесса. Освещены основные этапы организации образовательного процесса, документы планирования, методическая деятельность, внеклассные мероприятия, а также значение совершенствования учебно-материальной базы. Обоснована педагогическая значимость использования современных образовательных технологий в формировании у обучающихся навыков безопасной жизнедеятельности.

**Ключевые слова:** основы безопасности жизнедеятельности, педагогическая техника, профессиональная компетентность, планирование, образовательный процесс, методическая деятельность, интерактивные методы, культура безопасности, педагогическое мастерство.

## KIRISH

Ta'lim muassasalarida "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini samarali va sifatli tashkil etishda o'qituvchining oldindan puxta tayyorgarlik ko'rishi, darslarni to'g'ri rejalashtirishi hamda o'quv jarayonini oqilona tashkil etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur fan nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalarni hamda xavfsiz yashash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisining tayyorgarlik ishlari o'quvchilarning intellektual, ma'naviy, axloqiy va jismoniy rivojlanishiga tizimli ta'sir ko'rsatishga qaratiladi. Ushbu jarayon orqali ularda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, xavfsizlik qoidalariga rioya etish hamda hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalari shakllantiriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitish metodikasi va o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. N.P. Abaskalova, L.A. Akimova va S.V. Petrovning 2013-yildagi tadqiqotlarida hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish muhimligi ta'kidlangan. Mualliflar o'quvchilarda xavfsizlik madaniyatini rivojlan-



tirishda o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va metodik yondashuvi asosiy omillardan biri ekanligini qayd etganlar <sup>[1]</sup>.

L.A. Mixaylov, E.E. Alekseyeva va O.V. Shatrovalarning 2003-yilda olib borgan tadqiqotlarida bolalar va o'smirlarning psixologik xavfsizligini ta'minlashda pedagogning kasbiy mahorati muhim o'rin egallashi ko'rsatilgan <sup>[2]</sup>.

B.T. Jurayev hamda Sh.Sh. Olimov tadqiqotlarida pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, o'qituvchining kasbiy mahoratini rivojlantirish va ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlarni qo'llash masalalari yoritilgan <sup>[3; 4; 5]</sup>.

So'nggi yillarda interfaol metodlardan foydalanish va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. L. Rajabov, N. Saidxanova, S.I. Xusanova hamda M. Xikmatovning ilmiy ishlarida hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitishda interfaol usullar, zamonaviy texnologiyalar va amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati ochib berilgan <sup>[6; 7; 8]</sup>.

Tadqiqotlar natijalari o'quvchilarning bilim, ko'nikma va xavfsizlik kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ko'rsatadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida ma'lumotlarni olishda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, hayot faoliyati xavfsizligi faniga oid metodik manbalarni qiyosiy tahlil qilish hamda mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi va rejalashtirish faoliyatiga doir ilmiy qarashlar, metodik tavsiyalar hamda amaliy yondashuvlar tizimli ravishda o'rganildi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilishda tavsifiy, qiyosiy va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida turli manbalardagi ilmiy qarashlar o'zaro solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi hamda mavjud yondashuvlarning mazmuniy xususiyatlari baholandi. Shu asosda hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitishda o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda rejalashtirish faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'qituvchining tayyorgarlik faoliyati bir qator muhim yo'nalishlarni qamrab oladi. Jumladan, amaldagi davlat ta'lim dasturlari, o'quv rejalari va tavsiya etilgan darsliklarni chuqur o'rganish hamda tahlil qilish, ta'lim jarayoniga oid buyruqlar, nizomlar, ko'rsatmalar va me'yoriy hujjatlar bilan tanishish, metodik qo'llanmalar, tavsiyalar, didaktik materiallar, ko'rgazmali vositalar hamda elektron resurslarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, boshqa fanlar dasturlari bilan tanishib, fanlararo integratsiyani samarali yo'lga qo'yish, o'quvchilarga ko'rsatiladigan amaliy mashqlar, himoya usullari va harakatlarni oldindan mashq qilib ko'rish, darslarda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni tanlash hamda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot shakllarini ishlab chiqish ushbu faoliyatning tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Tayyorlov ishlari yakunlangach, o'qituvchi o'quv jarayonini rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqishga kirishadi. Rejalashtirish pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'qituvchidan ijodkorlik, tanqidiy yondashuv, mas'uliyat hamda doimiy ravishda o'z ustida ishlashni talab qiladi. Yaxshi rejalashtirilgan ta'lim jarayoni dars samaradorligini oshiradi, vaqtni tejaydi hamda o'quvchilarning bilim olish jarayonini tartibga soladi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitishda rejalashtirish muayyan talablar asosida amalga oshiriladi. Har qanday rejalashtirish aniq maqsad va vazifalarga ega bo'lishi kerak. Belgilangan maqsad real, erishish mumkin bo'lgan hamda o'quvchilarning imkoniyatlariga mos bo'lishi lozim. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasi, moddiy-texnik baza, dars vaqti hamda mavjud sharoitlarni obyektiv baholashi zarur.

Masalan, favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish mavzusini rejalashtirishda nafaqat nazariy ma'lumot berish, balki amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish ham ko'zda tutiladi. Bu esa o'quvchilarda real hayotda qo'llash mumkin bo'lgan ko'nikmalarni shakllantiradi. Didaktik maqsad bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan kichik vazifalar tizimi orqali ochib beriladi. Har bir vazifa o'zaro bog'liq bo'lib, ma'lum ketma-ketlikda bajarilishi kerak. O'qituvchi nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni ham oldindan belgilab olishi lozim.

Shuningdek, darsda qo'llaniladigan metodlar, vositalar va tashkiliy shakllar ham maqsadga mos ravishda tanlanadi. Rejada ko'rsatilgan vazifalar aniq, tushunarli va nazorat qilish imkonini beradigan tarzda ifodalinishi kerak. Ularni imkon qadar o'lchab bo'ladigan natijalar bilan bog'lash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday natijalarga test natijalari, amaliy mashqlarni bajarish sifati, xavfsizlik qoidalarini qo'llash darajasi hamda normativ mashqlarni bajarish ko'rsatkichlari kiradi.

Bunday yondashuv o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini muntazam monitoring qilish, dars samaradorligini baholash hamda ta'lim sifatini oshirish imkonini beradi. Puxta rejalashtirish o'qituvchiga darslarni tizimli tashkil etish, o'quv materiallarini izchil yetkazish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, o'quvchilarning faolligini oshirish hamda kutilmagan vaziyatlarga tayyor turish imkonini yaratadi.

Ayniqsa, hayot faoliyati xavfsizligi fanida rejalashtirish xavfsizlik masalalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgani sababli, har bir mashg'ulot oldindan chuqur o'ylangan bo'lishi talab etiladi. Chunki mazkur fan o'quvchilarning hayoti va salomatligini asrashga xizmat qiladigan muhim amaliy kompetensiyalarni shakllantiradi.

Rejalashtirish imkon qadar aniq, tushunarli va amalda bajarilishi mumkin bo'lgan tarzda tuzilishi lozim. Belgilanayotgan vazifalar, ta'lim vositalari hamda o'qitish metodlari o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, yosh xususiyatlari va mashg'ulot o'tkaziladigan sharoitlarga to'liq mos kelishi kerak. Chunki haddan tashqari murakkab yoki, aksincha, juda sodda rejalashtirilgan darslar ta'lim samaradorligini pasaytiradi.

Rejalashtirishning aniqlik darajasi uning qaysi muddatga tuzilayotganiga ham bog'liq bo'ladi. Uzoq muddatli rejalarda umumiy maqsad va yo'nalishlar belgilanadi, qisqa muddatli rejalarda esa vazifalar yanada batafsil yoritiladi. Eng mukammal va batafsil reja alohida bir dars uchun tuziladigan dars ishlanmasi (reja-konspekt) hisoblanadi. Unda darsning maqsadi, bosqichlari, metodlari, vaqt taqsimoti, foydalaniladigan jihozlar va baholash mezonlari aniq ko'rsatiladi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'qitishda o'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish ma'lum mantiqiy ketma-ketlik asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon yangi o'quv yili uchun maqsad va vazifalarni belgilash, o'quv materiallarini o'tish ketma-ketligini aniqlash, ta'lim metodlari va vositalarini tanlash, o'quv talablarini belgilash hamda rejani amalga oshirish ishlarini tashkil etish bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Barcha tayyorgarlik va rejalashtirish ishlari bajarilgandan so'ng, "Hayot faoliyati xavfsizligi" fani o'qituvchisi rejalarni matnli-tavsifiy yoki jadval shaklida rasmiylashtirishga kirishadi. Bu bosqichda rejaning barcha bo'limlari, mavzulari va vazifalari o'zaro uyg'unlashtirilib, yagona pedagogik tizimga keltiriladi. Har bir mavzuning mazmuni, maqsadi va bajarilish tartibi puxta ko'rib chiqiladi.

Shunday qilib, rejalashtirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan izchil jarayon hisoblanadi. U umumiy maqsadlardan boshlanib, asta-sekin aniq va batafsil dars ishlanmalarigacha olib boriladi. Ya'ni rejalashtirish "umumiydan xususiyga" tamoyili asosida tashkil etiladi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchisi "Maktabning Hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha tadbirlar rejasi", "Dastur materiallarini o'quv yillari bo'yicha taqsimlash rejasi", "Kalendar-tematik reja", "Chorak uchun mavzuli (ishchi) reja" hamda "Darsning reja-konspekti" kabi asosiy rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqadi.

Mazkur hujjatlarning barchasi o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Umumiy reja asosida aniqroq va batafsilroq hujjatlar ishlab chiqiladi. Har bir rejaning ta'lim tizimida alohida vazifasi mavjud. Aslida, ushbu hujjatlar o'quv dasturidagi nazariy materiallarni bosqichma-bosqich dars mazmuniga aylantirish jarayonini aks ettiradi.

Maktabning "Hayot faoliyati xavfsizligi" bo'yicha tadbirlar rejasi umumiy maktab ish rejasining tarkibiy qismi hisoblanadi. U odatda yarim yillik yoki bir o'quv yili uchun tuziladi hamda maktab ma'muriyati bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Reja boshqa maktab tadbirlari bilan uyg'un ravishda tashkil etiladi. Mazkur reja tashkiliy ishlar, o'quv ishlari, metodik faoliyat, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari tadbirlar hamda o'quv-moddiy bazani takomillashtirish ishlarini o'z ichiga oladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini samarali o'qitishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi, pedagogik mahorati va rejalashtirish faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur fan o'quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish, birinchi yordam ko'rsatish hamda xavfsiz hayot tarzini shakllantirishga qaratilgan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonini puxta rejalashtirish darslarning tizimli va samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Rejalashtirishning maqsadga yo'naltirilganligi, aniqligi va izchilligi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va amaliy mashg'ulotlardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularda mustaqil fikrlash hamda tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Bundan tashqari, metodik ishlar, sinfdan tashqari tadbirlar va o'quv-moddiy bazani takomillashtirish ishlari ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda ko'rgazmali vositalar, raqamli texnologiyalar hamda amaliy treninglarning o'rni beqiyosdir.

Demak, "Hayot faoliyati xavfsizligi" fani o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi va pedagogik faoliyatini doimiy ravishda rivojlantirib borish bugungi ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan ushbu fan orqali o'quvchilarda hayotiy xavfsizlikni ta'minlashga oid muhim kompetensiyalar shakllantiriladi.


**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Абаскалова Н.П. Методика обучения основам безопасности жизнедеятельности в школе: учеб. пособие для студентов пед. вузов / Н. П. Абаскалова, Л. А. Акимова, С. В. Петров. – Новосибирск: АРТА, 2013. – 304 с.
2. Михайлов Л.А. Обеспечение психологической безопасности детей и подростков / Л.А. Михайлов, Е.Е. Алексеева, О.В. Шатрова. – СПб.: Союз, 2003.
3. Jurayev V.T. Pedagogik va psixologik fanlarni o'qitish metodikasi // Fan va ta'lim. – Vuxoro, 2022.
4. Жураев Б.Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса // Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.
5. Жураев Б.Т. Социально-духовное развитие студентов // Россия–Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 22–23.
6. Жумаева М.А. Педагог инновацион фаолиятининг функциялари // Psixologiya. Учредители: Бухарский государственный университет. – № 3. – С. 74–78.
7. Жумаева М.А. Интерактивное обучение – гарантия качества // Вестник магистратуры. – 2019. – № 4–3. – С. 66.
8. Олимов Ш.Ш., Ходжиева М.Ш. Возможности применения педагогических технологий в образовательном процессе // Молодежь и XXI век–2020. – 2020. – С. 228–231.
9. Олимов Ш.Ш., Сайфуллаева Н.З. Педагогико-экономические аспекты интеграции образования, науки и производства в условиях региональных вузов на современном этапе // Сибирский педагогический журнал. – 2019. – № 3. – С. 71–82.
10. Олимов Ш.Ш. Педагогическое мастерство преподавателя и его профессионализм в системе образования // Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.
11. Олимов Ш.Ш. Некоторые вопросы организации урока на основании педагогических технологий // Молодой ученый. – 2013. – № 5. – С. 752–754.
12. Ражабов Л. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги дарсларида интерфаол усуллардан фойдаланиш // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – Т. 3. – № 3. – С. 830–840.
13. Саидханова Н., Хусанова С.И. Хавфсизлик соҳасида “ҳаёт хавфсизлиги асослари” қоидаларини ўқитишнинг самарадорлиги // Oriental Art and Culture. – 2020. – № III. – С. 489–493.
14. Хикматов М. “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фанидан мавзуни ёритишда фойдаланиладиган интерфаол услуб // Актуальные вопросы развития современного общества, экономики и профессионального образования. – Российский государственный профессионально-педагогический университет, 2020. – С. 278–282.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.